


2019 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni 27,2 mingtani tashkil qilib, shundan xizmat sohasida hisobga olingan korxonalar va tashkilotlar soni 17,7 mingta (65,1 %) ni tashkil etdi.

2019 yil 1 mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sondagi ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil 1 mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 36,9 % ni tashkil etadi.


Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,5 % ga teng bo'ldi.


2019 yil 1 mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1693,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etdi.

Agar, xuddi shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilsa, moliyaviy xizmatlar hajmining 78,3 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 42,9 mlrd. so'mga, savdo xizmatlari 82,2 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatiladi. Ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi 272,1 mlrd. so'mga oshdi.

Alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1693,7	107,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	89,2	99,0
moliyaviy xizmatlar	205,0	160,0
transport xizmatlari	438,9	102,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	404,8	100,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	45,2	100,5
savdo xizmatlari	520,3	104,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	48,6	100,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	69,6	111,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	24,2	101,8
ijara xizmatlari	61,0	100,0
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	51,6	100,1
shaxsiy xizmatlar	75,5	97,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	15,6	102,3
boshqa xizmatlar	49,0	102,5


Umumiy tarkibda savdo xizmatlari ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida 30,7 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga, transport xizmatlari 25,9 %, moliyaviy xizmatlar 12,1 % hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,3 % ulush bilan eng yuqori ulushlarni egallaydi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Viloyatimizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 160,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (111,7 %), savdo xizmatlari (104,3 %), transport xizmatlari (102,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida (102,3 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




2019 yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 520,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 82,2 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019 yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 75,7 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 13,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 10,4 % ni tashkil etdi.

Ushbu davr mobaynida yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi 45,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 % ni tashkil etdi va hajmi 5,7 mlrd. so'mga oshdi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 79,1 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 404,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 100,7 % ni tashkil qildi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2019 yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 71,9 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.


Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %



2019 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 205,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 160,0 % ni tashkil etdi.

Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,8 % ni tashkil qilmoqda.

2019 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %



2019 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 450,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-85-35